



**Surxondaryo viloyatining
sanoat ishlab chiqarishi
(2020- yil yanvar-iyun)**



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2 trln. 445,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 106,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (88,8 %) ni tashkil etdi.



**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yi-
cha sanoat ishlab chiqarish**


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 3,6 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 6,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 5,0 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 43,9 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 109,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,5 % ini tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan koʻmir qazib olish - 5,2 % ga hamda chaqiq tosh - 2,2 martaga, tabiiy qum - 1,7 martaga oshgan boʻlsa, neft qazib olish - 1,2 % ga, qattiq tuz (osh tuzidan tashqari) - 21,3 % ga, yodgorliklar, pardoqlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qum-tosh va boshqa toshlar - 56,9 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Ko'lmir, ming t.	104,6	110,1	5,5
Neft, ming t.	40,5	40,0	-0,5
Qattiq tuz (osh tuzidan tashqari), ming t.	16,5	12,9	-3,6
Qum, ming t.	18,8	31,6	12,8
Chaqiq tosh, ming t.	32,5	70,9	38,4



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 trln. 171,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,8 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2019- yil yanvar-iyun oylarida - 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,4 % ni (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 24,3 % ni (26,4 %) va quyi texnologiyalisi - 64,0 % ni (59,4 %) tashkil etdi.

2019- yil
yanvar-iyun, % da



2020- yil
yanvar-iyun, % da



 yuqori texnologiyali

 o'irta-quyi texnologiyali


 o'irta-yuqori texnologiyali

 qiyi texnologiyali

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,0 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 105,1 %), yog'och va po'lat buyumlari, pahal va to'qish uchun materiallardagi buyumlari, qog'oz va qog'oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 2,2 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 136,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 39,4 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 147,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 22,1 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 76,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 0,5 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 213,8 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'lish sur'ati



2020- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 13,8 ming tonna paxta tolasi (2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2449,7 %), 17,2 ming tonna chakana savdo uchun qadoqlanmagan yigirilgan ip (110,2 %), 71,2 ming tonna un (125,6 %), 86,5 ming tonna portlandsement (0,0 %), 268,4 tonna sut (102,9 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'lish sur'atlari kuzatildi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Paxta tolasi, <i>ming t.</i>	0,6	13,8	13,2
Tozalangan paxta yog'i, <i>ming t.</i>	4,2	4,6	0,4
Un, <i>ming t.</i>	56,6	71,2	14,6
Portlandsement, <i>ming t.</i>	0,0	86,5	86,5
Dizel yoqilg'isi, <i>ming t.</i>	5,5	1,8	-3,7
Sut, <i>t.</i>	199,7	176,6	-23,1
Sariyog'i, <i>t.</i>	0,8	1,6	0,8



**Elektr, gaz, bugi bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bugi bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 131,1 mlrd. so'nni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,4 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmogida g zsimon yoqilgini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar o'lgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi - 36,0 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bugi bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, <i>mln.kVt/s</i>	1,5	0,0	0,0
Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	35,9	22,1	61,4



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33,6 mlrd. soʻnni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan
tomondan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.soʻnn	1,3	1,8	0,5
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.soʻnn	12,7	11,3	-1,4
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.soʻnn	3,1	5,1	2,0
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd.soʻnn	6,1	9,2	3,1

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarga butunlay yoʻqotish uchun ishlov berish boʻyicha xizmatlar - 66,1 % ga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yoʻqotish boʻyicha xizmatlar - 51,1 % ga, oqava suvlarni yoʻqotish, transportirovka qilish va ishlov berish boʻyicha xizmatlar - 40,8 % ga oshganligi, suvga ishlov berish va suv quvurlari boʻyicha taqsimlash boʻyicha xizmatlar - 11,2 % ga kamayganligi kuzatildi.



Isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 943,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan - 99,7 % ni tashkil qilgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 38,6 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-iyun oylarida isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 51,1 % dan 47,2 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,0 % (2019- yil yanvar-iyun oylarida 4,3 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga toʻgʻri kelib, 22,6 % ni, shuningdek, Denov tumani 17,4 % ni hamda Shoʻrchi tumani 14,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (99,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Termiz shahri (106,4 %), Qumqo'rg'on (152,2 %), Oltinsoy (121,8 %), Sho'rchi (103,9 %), Qiziriq (102,5 %), Muzrabot (101,8 %), Uzun (101,0 %), Boysun (100,9 %), Angor (100,0 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	943,4	100,0	99,7
Termiz sh.	213,5	22,6	106,4
tumanlar:			
Angor	27,5	2,9	100,0
Bandixon	1,1	0,1	98,0
Boysun	28,2	3,0	100,9
Denov	164,5	17,4	89,0
Jarqo'rg'on	70,6	7,5	93,6
Qumqo'rg'on	43,6	4,6	152,2
Qiziriq	19,7	2,1	102,5
Muzrabot	16,7	1,8	101,8
Oltinsoy	40,7	4,3	121,8
Sariosiyo	40,9	4,3	99,6
Termiz	63,2	6,7	87,9
Uzun	29,9	3,2	101,0
Sherobod	45,5	4,8	81,2
Sho'rchi	137,8	14,6	103,9



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 525,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 21,5 % ni tashkil etdi.



**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-iyun mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Surxondaryo viloyati	2445,9	106,1
Termiz sh.	489,1	108,9
tumanlar:		
Angor	58,0	110,3
Bandixon	1,1	105,5
Boysun	40,9	111,1
Denov	252,2	111,7
Jarqoʻrgʻlon	439,1	102,2
Qumqoʻrgʻlon	224,3	241,1
Qiziriq	81,4	102,4
Muzrabot	77,1	174,9
Oltinsoy	44,5	104,5
Sariosiyo	228,5	101,5
Termiz	97,2	104,0
Uzun	65,4	104,5
Sherobod	173,5	105,8
Shoʻrchi	173,6	109,2




**Surxondaryo viloyati hududlar kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining ko'payishiga, Qumqo'rg'on (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 241,1 %), Muzrabot (174,9 %), Denov (111,7 %), Boysun (111,1 %), Angor (110,3 %), Sho'irchi (109,2 %) tumanlari hamda Termiz shahrida (108,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada ko'payganligi bilan izohlashimiz mumkin.

**Sanoat ishlab chiqarish
fizik hajmi indeksi, % da**




**Iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishda o'sish
sur'ati, % da**



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Qumqo'rg'on (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 152,2 %), Oltinsoy (121,8 %), Sho'irchi (103,9 %), Qiziriq (102,5 %) tumanlarida hamda Termiz shahrida (106,4 %) sezilarli darajada oshdi.



**Surxondaryo viloyati jami sanoat
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Termiz shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 20,0 %), Jarqo'rg'on (18,0 %), Denov (10,3 %), Sariosiyo (9,3 %), Qumqo'rg'on (9,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bandixon (0,05 %), Boysun (1,7 %) hamda Oltinsoy (1,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Jarqo'rg'on (2 006,9 ming so'm), Termiz (1 255,8 ming so'm), Sariosiyo (1 087,6 ming so'm), Qumqo'rg'on 954,8 ming so'm) tumanlarida va Termiz shahri (2 705,0 ming so'm), o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (926,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 357,2 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida - 1 181,1 ming so'mni, Denov tumanida - 425,7 ming so'mni, Termiz tumanida - 816,6 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 658,3 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-iyun oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Surxondaryo viloyati	926,1	357,2
Termiz sh.	2705,0	1181,1
tumanlar:		
Angor	437,4	207,3
Bandixon	14,7	14,2
Boysun	352,9	242,9
Denov	652,8	425,7
Jarqo'rg'on	2006,9	322,9
Qumqo'rg'on	954,8	185,7
Qiziriq	712,4	172,2
Muzrabot	543,2	117,5
Oltinsoy	251,1	229,4
Sariosiyo	1087,6	194,4
Termiz	1255,8	816,6
Uzun	380,4	173,9
Sherobod	893,3	234,5
Sho'irchi	829,0	658,3



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020- yil yanvar-iyun oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 trln. 115,7 mlrd. soʻnlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 45,6 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy, Bandixon va Uzun tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 % dan), Boysun tumanida (96,4 %), Termiz tumanida (96,4 %), Angor tumanida (89,9 %) hamda Qiziriq (81,1 %) kuzatildi.


Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sherobod (24,5 %), Qumqo'rg'on (26,5 %), Sho'rchi (28,3 %), Muzrabot (31,2 %) hamda Jarqo'rg'on (32,1 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- iyul holatiga koʻra)

Bugungi kunda viloyatda 3625 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 644 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 17,8 %) Termiz shahriga, 392 tasi (10,8 %) Denov tumaniga, 262 tasi (7,2 %) Qumqoʻrgʻon, 250 tasi (6,9 %) Shoʻrchi tumaniga toʻgʻri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda



Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda





2020- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 1178 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 134 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 11,4 %) Termiz shahrida, 123 tasi (10,4 %) Denov tumanida, 117 tasi (9,9 %) Qumqoʻrgʻon tumanida, 107 tasi (9,1 %) Oltinsoy tumanida hamda 107 tasi (9,1 %) Shoʻrchi tumanida tashkil etildi.



**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligida Termiz shahri (644 ta), Denov (392 ta), Qumqo'rg'on (262 ta), Sho'rchi (250 ta) hamda Jarqo'rg'on (235 ta) tumanlari qayd etildi.



2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligiga esa Bandixon (30 ta), Qiziriq (168 ta), Oltinsoy (177 ta), Muzrabot (179 ta), Angor (185 ta) tumanlari qayd etildi.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar
ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining
amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 22 ta loyiha bo'yicha 14,6 mlrd. so'nlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va 133 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar
ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining
asosiy koʻrsatkichlari**

	2019 yil yanvar-iyun	2020 yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, birlik	6	22
Korxonalar soni, birlik	6	22
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. soqm	8,0	14,6
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH doll.	0,1	-
Yaratilgan yangi ish oʻqinlari, birlik	77	133

**Sanoat statistikasi
boʻlimi**

Tel.: (76) 225-65-76